



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARI SYUJET LINIYASINING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Nabiyeva Zulayxo Oribjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalq dostonlarining syujet tuzilishi va undagi asosiy motivlar tizimi o‘rganilib, tahlil natijalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” kabi dostonlar misolida ularning syujet tarkibi, asosiy g‘oyalari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Bunda tush, safar, sinov, jang, uylanish va qaytish motivlarining syujet shakllanishidagi bevosita roli aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek dostonlarida syujet qat’iy struktura asosida qurilib, motivlar ketma-ketligi muhim badiiy va kompozitsion vazifani bajaradi.

Kalit so‘zlar: doston, syujet, motiv, sinov, safar, tush, folklor.

ОСОБЕННОСТИ СЮЖЕТНОЙ ЛИНИИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ЭПОСОВ

Набиева Зулайхо Орибжон кизи

Наманганский государственный институт иностранных языков, базовый докторант

Аннотация

В статье представлены результаты исследования структуры сюжета узбекских народных эпосов и системы их основных мотивов. На материале эпосов «Алпомыш», «Кунтутмыш», «Рустамхон» анализируются сюжетная структура, основные идеи и этапы развития. Выявлена непосредственная роль мотивов сна, пути, испытаний, сражения, женитьбы и возвращения в формировании сюжета. Результаты показывают, что в узбекских эпосах сюжет строится на основе строгой структуры, где последовательность мотивов выполняет важную художественную и композиционную функцию.

Ключевые слова: эпос, сюжет, мотив, испытание, путь, сон, фольклор.

PECULIARITIES OF THE PLOT STRUCTURE OF UZBEK FOLK EPICS

Nabiyeva Zulayxo Oribjon qizi

Namangan State Institute of Foreign Languages, Doctoral student

Abstract

The article presents the results of a study on the plot structure of Uzbek folk epics and the system of their main motifs. Based on epics such as “Alpomish,” “Kuntugmish,” and “Rustamkhan,” the plot composition, key ideas, and stages of development are analyzed. The study identifies the direct role of motifs such as dream, journey, trial, battle, marriage, and return in shaping the plot. The results show that the plot in Uzbek epics is constructed on a strict structural basis, where the sequence of motifs performs important artistic and compositional functions.

Keywords: epic, plot, motif, trial, journey, dream, folklore.

O‘zbek xalq dostonlari xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, estetik didi va ma’naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan eng muhim epik janrlardan biri hisoblanadi. Bu asarlar nafaqat badiiy tafakkur mahsuli, balki xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlarini, dunyoqarashi hamda axloqiy me’yorlarini aks ettiruvchi murakkab madaniy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Dostonlar orqali xalq o‘zining ideal qahramonini yaratadi, unda jasorat, sadoqat, vatanparvarlik, adolat va insoniylik kabi fazilatlarni mujassamlashtiradi. Shu jihatdan ular nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va gnoseologik ahamiyatga ham ega. Ushbu epik asarlar yuzaki qaralganda voqealar ketma-ketligi sifatida ko‘rinsa-da, aslida ular qat’iy ichki qonuniyatlarga asoslangan murakkab syujet tizimini tashkil etadi. Har bir doston o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo‘lib, unda voqealar tasodifiy emas, balki muayyan tartib va mantiq asosida rivojlanadi. Syujetning bunday izchilligi va yaxlitligi esa, avvalo, unda ishtirok etuvchi motivlar tizimi bilan bog‘liqdir.

Folklorshunoslikda motiv tushunchasi syujetni tashkil etuvchi asosiy strukturaviy birlik sifatida qaraladi. Motivlar voqealar rivojining “harakatlantiruvchi kuchi” bo‘lib, ular orqali qahramonning harakati, qaror qabul qilishi va voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari izohlanadi. A. V. Rafeeva fikriga ko‘ra, motivlar syujetni tashkil etuvchi asosiy birliklar bo‘lib, ular voqealar qanday ketma-ketlikda rivojlanishini belgilaydi va matn ichidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi. Shu sababli, motivlarsiz syujetni to‘liq

tushunish yoki tahlil qilish qiyin [1, 20].

O‘zbek xalq dostonlarida motivlar xilma-xil bo‘lib, ular orasida tush, safar, sinov, uylanish, jang, do‘stlik va uyga qaytish kabi motivlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu motivlar nafaqat voqealar rivojini belgilaydi, balki qahramonning ichki va tashqi o‘zgarishlarini ham ifodalaydi. Ayniqsa, sinov (testing) motivi epik syujetning markaziy elementi sifatida namoyon bo‘ladi [2, 795]. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, qahramon o‘z maqsadiga erishish jarayonida turli murakkab vazifalar, xavf-xatarlar va to‘siqlarga duch keladi hamda aynan shu sinovlarni yengib o‘tish orqali o‘zining haqiqiy qahramon sifatidagi mohiyatini namoyon etadi [3, 271]. Sinov motivi faqat tashqi kurash bilan cheklanmaydi, balki ko‘pincha qahramonning ichki ruhiy holati, sabr-toqati va aql-zakovati bilan ham bog‘liqdir. Shu jihatdan u epik asarda qahramon evolyutsiyasining asosiy mezoni vazifasini bajaradi. Masalan, qahramonning uzoq safarga chiqishi, begona muhitda yashashi yoki murakkab topshiriqlarni bajarishi — bularning barchasi sinov motivining turli ko‘rinishlaridir.

Bundan tashqari, o‘zbek dostonlarida tush motivi ham alohida o‘rin tutadi. Tush ko‘pincha voqealar rivojining boshlanish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi, ya‘ni u syujetning keyingi bosqichlarini oldindan belgilab beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tush motivi ko‘pincha boshqa muhim motivlar — safar, sinov, uylanish va qaytish bilan uzviy bog‘liq holda keladi va syujetning kompozitsion yaxlitligini ta‘minlaydi [3, 272]. Umuman olganda, o‘zbek xalq dostonlarining syujet liniyasi motivlar tizimi asosida shakllanadi va rivojlanadi. Har bir motiv o‘ziga xos funksiyani bajarib, syujetning ma‘lum bosqichiga xizmat qiladi: ayrimlari voqeani boshlaydi, boshqalari uni rivojlantiradi yoki yakunlaydi. Shu sababli motivlarni o‘rganish orqali nafaqat syujet strukturasi, balki asarning badiiy mohiyatini ham chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi.

METODOLOGIYA (METHODS)

Mazkur tadqiqot o‘zbek xalq dostonlarining syujet liniyasi va motivlar tizimini chuqurroq anglash maqsadida bir necha ilmiy metodlar asosida olib borildi. Har bir metod tadqiqotning ma‘lum jihatini yoritishga xizmat qilib, umumiy natijalarni yanada asosli va ishonchli qilishga yordam berdi. Avvalo, struktural tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida doston syujetining ichki tuzilishi, ya‘ni uning boshlanishi (ekspozitsiya), tuguni, rivoji, kulminatsiyasi va yakun bosqichlari aniqlab chiqildi. Bu orqali dostonlarda voqealar qanday tartibda joylashgani va ularning o‘zaro bog‘liqligi tizimli ravishda o‘rganildi. Struktural yondashuv dostonlarning tashqi voqeviy qatlamidan tashqari, ularning ichki kompozitsion qonuniyatlarini ham ochib berishga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda motiv tahlili metodi muhim o‘rin tutdi. Bu metod orqali dostonlarda uchraydigan asosiy motivlar — tush, safar, sinov, jang, uylanish, uyga qaytish kabi badiiy elementlar ajratib olindi va ularning syujetdagi funksiyasi tahlil qilindi. Motivlarning qaysi bosqichda paydo bo‘lishi, qanday vazifa bajarishi va boshqa motivlar bilan qanday aloqaga kirishishi aniqlab berildi. Bu esa syujetning qanday shakllanishini chuqurroq tushunishga imkon yaratdi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil metodi ham qo‘llanildi. Ushbu yondashuv orqali turli o‘zbek xalq dostonlari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlab chiqildi. Masalan, “Alpomish”, “Kuntug‘mish” va boshqa dostonlarda motivlarning takrorlanishi, ularning o‘xshash funksiyalari hamda ayrim o‘ziga xos jihatlari solishtirildi. Natijada, o‘zbek epik an‘analariga xos umumiy syujet modeli mavjudligi va u turli asarlarda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘lishi aniqlashtirildi.

NATIJALAR (RESULTS)

Dostonlar odatda muayyan voqeani boshlab beradigan motivlar bilan ochiladi. Bu bosqichda qahramonning kelajakdagi taqdiri va asosiy voqealar yo‘nalishi belgilanadi. Eng muhim boshlang‘ich motivlardan biri tush motivi hisoblanadi. Masalan, “Alpomish” dostonida qahramon va boshqa obrazlar ko‘rgan tushlar keyingi voqealarning qanday rivojlanishini oldindan bildiradi. Tush orqali qahramonning kelajakdagi safarlari, uchrashuvlari va sinovlari ishora qilinadi. Shuning uchun tush motivi syujetning boshlanish nuqtasi sifatida xizmat qiladi va voqealarga yo‘nalish beradi [4, 45]. Yana bir muhim motiv muhabbat motividir. Qahramonning sevgilisi bilan bog‘liq voqea ko‘pincha uning harakatga kelishiga sabab bo‘ladi. Masalan, qahramon sevgan qiziga yetishish uchun uzoq safarga chiqadi yoki turli sinovlardan o‘tadi [5, 15]. Demak, muhabbat motivi syujetni harakatga keltiruvchi asosiy sabab hisoblanadi. Shuningdek, farzandsizlik va tug‘ilish motivi ham boshlanish bosqichida muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab dostonlarda qahramon mo‘jizaviy tarzda dunyoga keladi. Bu esa uning oddiy inson emasligini, kelajakda buyuk ishlar qiladigan qahramon ekanini oldindan ko‘rsatadi.

Syujetning eng katta va asosiy qismi aynan rivoj bosqichiga to‘g‘ri keladi [5, 15]. Bu bosqichda qahramon turli voqealar ichiga kiradi va uning haqiqiy qahramonligi shakllanadi. Bu yerda birinchi o‘rinda safar motivi turadi. Qahramon o‘z yurtidan chiqib, uzoq va xavfli yo‘lga otlanadi. Masalan, “Alpomish”

dostonida u qalmoq yurtiga boradi. Safar qahramonning o‘sishi va tajriba orttirishiga xizmat qiladi. Safar davomida qahramon turli sinovlarga duch keladi. Bu esa sinov motivini yuzaga keltiradi. Qahramon jang qiladi, murakkab topshiriqlarni bajaradi, aql va sabr bilan muammolarni hal qiladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sinov motivi epik asarlarning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, qahramon aynan sinovlar orqali o‘zini isbotlaydi [2, 798]. Bu bosqichda yana yordamchi kuchlar motivi ham muhim rol o‘ynaydi. Qahramon yolg‘iz harakat qilmaydi, unga do‘stlar yoki boshqa yordamchilar yordam beradi. Masalan, “Alpomish”da Qorajon dastlab raqib bo‘lsa ham, keyinchalik qahramonga yordamchi bo‘lib qoladi. Bu esa do‘stlik va birlik g‘oyasini ham ifodalaydi.

Keyingi o‘rinda kulminatsiya turadi. Bu syujetning eng keskin va muhim nuqtasi hisoblanadi. Bu bosqichda voqealar eng yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Odatda bu yerda: asosiy jang bo‘ladi, qahramon dushman bilan to‘qnashadi, hal qiluvchi g‘alaba qo‘lga kiritiladi. Aynan shu bosqichda qahramon o‘z kuchi, jasorati va aqlini to‘liq namoyon qiladi. U barcha sinovlardan o‘tganini amalda isbotlaydi. Aynan “Alpomish” dostonida ham qahramon yovuz Ultontoz bilan jang qilib, uni yengadi va qaylig‘i Barchinni va uning oila a‘zolarini ozod etadi.

Dostonlar odatda ijobiy yakun bilan tugaydi. Bu bosqichda voqealar hal bo‘ladi va tartib tiklanadi. Eng muhim yakuniy motivlardan biri uyga qaytish motividir. Qahramon uzoq safardan so‘ng o‘z yurtiga qaytadi. Bu qaytish uning g‘alaba bilan qaytganini bildiradi. Bundan tashqari, uylanish motivi ham keng uchraydi. Dostonlar ko‘pincha to‘y bilan yakunlanadi. Bu qahramonning maqsadiga erishganini va hayoti baxtli davom etishini anglatadi. A. Ashirov ta’kidlaganidek, o‘zbek folklorida tinchlik va totuvlik eng muhim qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi va dostonlar aynan shu g‘oya bilan yakunlanadi [5, 15].

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq dostonlari tartibsiz yoki tasodifiy yaratilmagan, balki aniq va izchil strukturaviy tizim asosida qurilgan. Ya’ni har bir doston o‘ziga xos ichki qonuniyatlarga ega bo‘lib, unda voqealar ma’lum ketma-ketlikda rivojlanadi. Bu tartib esa, avvalo, motivlar orqali shakllanadi. Motivlar syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lib, ular voqealarning qayerdan boshlanishi, qanday rivojlanishi va qanday yakun topishini belgilab beradi.

Doston syujetining shakllanish jarayonini oddiyroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin: tush motivi odatda syujetning boshlanishiga sabab bo‘ladi. Qahramon yoki boshqa obraz ko‘rgan tush kelajakda sodir bo‘ladigan voqealarga ishora qiladi va butun hikoyaning yo‘nalishini belgilaydi. Muhabbat motivi qahramonni harakatga undaydi. Ya’ni u sevgan insoniga yetishish yoki uni himoya qilish uchun yo‘lga chiqadi. Safar motivi voqealarning rivojlanishini ta’minlaydi. Qahramon o‘z yurtidan chiqib, turli sinovlarga duch keladigan yangi muhitga kiradi. Sinov motivi qahramonni shakllantiradi. U qiyinchiliklarga duch keladi, kurashadi va asta-sekin kuchli, dono va tajribali qahramonga aylanadi. Jang motivi syujetning eng keskin nuqtasi, kulminatsiyani yuzaga keltiradi. Bu bosqichda qahramon asosiy dushman bilan to‘qnashadi va o‘z kuchini isbotlaydi. Qaytish motivi esa syujetni yakunlaydi. Qahramon o‘z yurtiga g‘alaba bilan qaytadi va hikoya ijobiy tarzda tugaydi. Shu tariqa, har bir motiv syujetning ma’lum bir bosqichiga xizmat qiladi va ular o‘zaro bog‘lanib, yaxlit hikoya hosil qiladi.

Bundan tashqari, motivlar o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) barqaror motivlar — bular deyarli barcha dostonlarda uchraydigan va syujet uchun juda muhim bo‘lgan motivlardir. Masalan, tush motivi shular jumlasiga kiradi. Agar bunday motiv o‘zgarsa yoki olib tashlansa, syujet ham jiddiy o‘zgarib ketadi; 2) o‘zgaruvchan motivlar — bular esa ayrim hollarda o‘zgarishi yoki boshqa motiv bilan almashishi mumkin bo‘lgan elementlardir. Ular syujetga rang-baranglik beradi, lekin asosiy tuzilmani o‘zgartirib yubormaydi. Ayniqsa, tush motivi o‘zbek xalq dostonlarida juda muhim o‘rin egallaydi. U faqatgina syujetni boshlash bilan cheklanmaydi, balki boshqa motivlarning paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ladi. Masalan, tushdan keyin safar boshlanadi, sinovlar yuzaga keladi yoki qahramon muayyan maqsad sari yo‘l oladi. Shu sababli tush motivini doston syujetining “yadrosi”, ya’ni asosiy markazi deb hisoblash mumkin [6, 6].

Umuman olganda, o‘zbek xalq dostonlarida motivlar o‘zaro uzviy bog‘langan holda ishlaydi va ular orqali syujet izchil va mantiqiy tarzda rivojlanadi. Bu esa dostonlarning badiiy mukammalligi va asrlar davomida yashab kelayotganligini ta’minlaydi.

XULOSA (CONCLUSION)

O‘zbek xalq dostonlari syujeti oddiy voqealar ketma-ketligi emas, balki ma’lum qonuniyatlarga asoslangan murakkab, lekin izchil tuzilishga ega tizimdir. Bu tizimning asosini esa turli motivlar tashkil etadi. Aynan motivlar orqali voqealar bir-biri bilan bog‘lanadi, rivojlanadi va yakuniga yetadi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, doston syujeti aniq bosqichlar asosida shakllanadi va har bir

bosqichda ma'lum motivlar muhim rol o'ynaydi. Avvalo, syujetning boshlanishida tush va muhabbat motivlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Tush motivi orqali kelajakdagi voqealarga ishora qilinadi, muhabbat motivi esa qahramonni harakatga undaydi, ya'ni uning yo'lga chiqishiga sabab bo'ladi. Keyingi bosqich, syujetning rivoj qismida safar va sinov motivlari asosiy o'rinni egallaydi. Qahramon uzoq yo'lga chiqadi, begona muhitga tushadi va turli qiyinchiliklarga duch keladi. Aynan shu sinovlar orqali u chiniqadi, tajriba orttiradi va haqiqiy qahramonga aylanadi. Syujetning eng muhim va keskin nuqtasi — kulminatsiyada esa voqealar odatda jang orqali ifodalanadi. Bu yerda qahramon asosiy dushman bilan to'qnashadi va o'z kuchi, jasorati hamda aqlini namoyon qiladi. Dostonlarning yakunida esa voqealar odatda ijobiy tarzda hal bo'ladi. Bu bosqichda uylanish va uyga qaytish motivlari asosiy rol o'ynaydi. Qahramon o'z yurtiga qaytadi, maqsadiga erishadi va hayoti barqarorlashadi. Shu asosda aytish mumkinki, motivlar doston syujetining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ular orqali nafaqat voqealar rivoji, balki qahramonning o'sishi, uning ichki va tashqi o'zgarishlari hamda asarning umumiy g'oyaviy mazmuni to'liq ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рафаева А. Мотив параллелизма персонажей и его место в сюжете волшебной сказки // Мировое древо. Международный журнал по теории и истории мировой культуры. – 1998. – № 6. – С. 19–29.
2. Israilova S. T. Ingliz va o'zbek ertaklarida "sinov" ma'nosini ifodalashning lingvokulturologik jihatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 3. – В. 794–798.
3. Джалалов Г. А. Узбекский народный сказочный эпос. – Ташкент: Фан, 1980. – 271 с.
4. Alpomish. Doston / aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li; nashrga tayyorlovchi T. Mirzaev. – Toshkent: Fan, 1999. – В. 144–145.
5. Аширов А. А. Мотивы мира в узбекских народных эпических сказаниях // Вестник Северо-Восточного федерального университета имени М. К. Аммосова. Серия: Эпосоведение. – 2016. – № 4 (4). – С. 13–16.
6. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2017.